PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

INTERFAOL METODLAR ASOSIDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKL VA USULLARI

Jalilova Sevinch Shuhrat qizi
Termiz davlat pedagogika instuti pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada interfaol metodlar asosida ta'lim jarayonida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga doir mashg'ulotlarni tashkil etishning samarali shakl va usullari yoritilgan. Tadqiqotda kommunikativ kompetensiyaning mazmun-mohiyati, uning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati hamda interfaol ta'lim texnologiyalarining kommunikativ faoliyatni faollashtirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, "Aqliy hujum", "Munozara", "Klaster", "Keys-stadi", "Rol o'ynash", "Baliq skeleti" kabi interfaol metodlarning o'quvchilarda muloqot madaniyati, fikrni erkin ifodalash, tinglash, hamkorlikda ishlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning kommunikativ faolligi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Maqolada kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, kommunikativ ko'nikmalar, kommunikativ kompetensiya, ta'lim jarayoni, muloqot madaniyati, hamkorlikda o'qitish, rol o'ynash, munozara, pedagogik texnologiyalar, interaktiv ta'lim.

Abstract: This article examines the forms and methods of organizing educational activities aimed at developing communicative skills through interactive teaching methods. The study highlights the essence and significance of communicative competence in the educational process and analyzes the role of interactive technologies in enhancing students' communication abilities. Particular attention is paid to the application of interactive methods such as brainstorming, discussion, case study, role-playing, cluster technique, and collaborative learning, which contribute to the development of speaking, listening, critical thinking, cooperation, and problem-solving skills. The findings indicate that the effective integration of interactive methods into educational practice increases students' communicative activity, self-confidence, social adaptability, and active participation in learning. The article also provides practical recommendations for designing and implementing communicative skill development activities based on modern pedagogical approaches.

Keywords: interactive methods, communicative skills, communicative competence, educational process, interactive learning, communication culture, collaborative learning, role-playing, discussion, pedagogical technologies.

KIRISH

Hozirgi davr ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan asosiy vazifa – o'quvchilarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, o'zaro konstruktiv muloqotga kirishishga va jamoada hamkorlikda ishlashga o'rgatishdan iborat. Jamiyatda shaxsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning kommunikativ kompetensiyasi (muloqot qobiliyati) bilan belgilanadi. Shu bois, o'quv mashg'ulotlarini interfaol metodlar asosida tashkil etish ushbu ko'nikmalarni jadal rivojlantirishning eng samarali yo'li hisoblanadi.

Interfaol o'qitish metodlari — bu o'quvchilarning ta'lim jarayonida faolligini oshirish va ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik hamda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlardir. Ushbu metodlar o'quvchilarning darsga faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning bilim olish jarayoniga bevosita jalb bo'lishini kuchaytiradi. Interfaol metodlar ta'limning an'anaviy usullaridan farqli o'laroq, o'quvchilarni ko'proq o'zaro muloqot qilishga, muammolarni birgalikda hal qilishga, yaratish va ijod qilishga undaydi. Guruh ishlari interfaol metodlar orasida eng samarali usullardan biridir. Ushbu metod o'quvchilarga jamoa tarzida ishlash, bir-biridan o'rganish, fikr almashish va guruh holida qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Texnologiya fanida guruh ishlari orqali o'quvchilar amaliy ko'nikmalarni o'zlashtiradi, masalan, birgalikda loyihalar yaratish yoki muammoli vazifalarni hal qilish.

Muammoli ta'lim interfaol o'qitish metodlaridan biri bo'lib, o'quvchilarga muammolarni real hayotga yaqin vaziyatlarda hal qilishni o'rgatadi. Bu metodda o'quvchilar muammoni o'zlari aniqlashadi, unga yechim izlashadi va amaliyotga tadbiq etishadi. Texnologiya fani darslarida muammoli ta'limni qo'llash orqali o'quvchilar ishlab chiqarish, dizayn yoki boshqa texnik jarayonlarni amalga oshirishga qodir bo'ladilar.

Aqliy xaritalar — bu bilimlarni tizimli ravishda tashkil etishga yordam beruvchi vositalardir. Ular o'quvchilarga mavzularni yodda saqlashda va tushunishda yordam beradi, shuningdek, yangi g'oyalar va tushunchalarni yaratishga turtki bo'ladi. Texnologiya fanida aqliy xaritalar, masalan, yangi texnologiyalarni tushuntirish, dizayn va loyihalarni ishlab chiqishda foydali bo'ladi [1, 80-84].

Interaktiv taqdimotlar, masalan, PowerPoint va Prezi, o'quvchilarning diqqatini jalb etishga yordam beradi va o'quv jarayonini qiziqarli qilish imkonini yaratadi. Onlayn resurslar (video darslar, interaktiv veb-saytlar va mobil ilovalar) esa o'quvchilarga o'z vaqtida mustaqil ravishda o'qish va o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Ta'lim tizimi zamonaviy o'quvchilarning yuqori darajadagi kreativlik va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishni talab qiladi. Ayniqsa, texnologiya fanida, o'quvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlash, balki ularda amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirish muhimdir. Bu jarayonni samarali amalga oshirishda interfaol o'qitish metodlari katta rol o'ynaydi. Interfaol o'qitish metodlari o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etib, ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi [4, 1-10].

Interfaol ta’lim, interfaol uslublar muntazam muloqotga asoslangan uslublar tizimi bo‘lib, o‘quvchilarning hamkorlikdagi va faol ishtirokidagi ta’lim va uslublar tizimi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, o‘qitishning interfaol uslublari –bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman o‘quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o‘ziga

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaolta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni

amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.[6]Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi talabalarning o‘quv mazmuni bilan faol muloqotga kirishishini, o‘z fikrlarini erkin ifodalashini hamda axborotni tahlil qilish va baholash jarayonida samarali muloqot olib borishini ta’minlaydi (Rahmi, 2019).[7] Ushbu yondashuv faqat tayyor bilimlarni qabul qilish bilan cheklanmay, balki murakkab masalalarni muhokama qilish, fikr almashish va hamkorlikda yechim topish orqali talabalarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, birinchi kurs talabalari uchun o‘qituvchiga to‘liq tayanishdan mustaqil fikr bildiruvchi va faol muloqot qiluvchi shaxsga aylanish jarayoni muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu holat, ayniqsa, ijtimoiy imkoniyatlari cheklangan muhitdan kelgan talabalar orasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Dlamini va Zongli (2020)[3] ta’kidlashicha, talabalarning oliy ta’lim muhitiga moslashuvi ularning individual qobiliyatlariga emas, balki ta’lim muhitining muloqotni rivojlantirishga yo‘naltirilganligiga ko‘proq bog‘liqdir.Birinchi kurs talabalari uchun oliy ta’lim muassasasiga moslashuv jarayoni ulardan mustaqillik, mas’uliyat va samarali muloqot olib borish qobiliyatini talab etadi. Ushbu jarayon, asosan, talabalarning ichki motivatsiyasi, oliy ta’lim tizimidagi kommunikativ ta’lim muhiti hamda muassasada shakllangan muloqot me’yorlari bilan belgilanadi.

Ushbu interfaol metodlar o'quvchilarga nafaqat bilim olishda, balki mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishda ham katta yordam beradi. Ular o'quvchilarga texnologiya fanida yaratish va ijodiy ko'nikmalarni o'zlashtirishga turtki beradi.

Texnologiya fani o'quvchilarga nafaqat texnik bilimlar va ko'nikmalarni o'rgatadi, balki ularni ijodkorlik va yaratuvchanlikka ham tayyorlaydi. Bugungi kunda o'quvchilarning yaratish va ijod qilish qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiya fanining asosiy vazifalaridan biriga aylangan. Ijodkorlik va yaratuvchanlik ko'nikmalari o'quvchilarga muammolarni hal qilish, yangi g'oyalar yaratish va texnik jarayonlarni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Texnologiya fanida bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun bir nechta samarali metodlar va yondashuvlar mavjud. Ijodiy yondashuv texnologiya fanida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, yangi va innovatsion g'oyalar yaratishini ta'minlaydi. Bu yondashuvda o'quvchilarni turli xil amaliyotlar orqali kreativ qarorlar qabul qilishga undash, ularga texnologik jarayonlarni yangi nuqtai nazardan ko'rishga yordam beradi. Masalan, o'quvchilarga yangicha dizayn qilish, yangi texnologik qurilma yaratish yoki mavjud texnologiyani yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berish orqali ijodkorlikni rivojlantirish mumkin.

Loyiha asosida o'qitish metodida o'quvchilar real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun guruhlar bo'lib ishlashadi. Bu metod o'quvchilarning kreativ fikrlashini, yangi g'oyalarni ishlab chiqishini va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Texnologiya fani darslarida loyiha asosida ishlash orqali o'quvchilar loyiha yaratish, texnologik jarayonlarni rejalashtirish va ishlab chiqish kabi ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Masalan, robototexnika yoki dasturlash loyihalarida ishtirok etish, o'quvchilarga muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim metodida o'quvchilar o'zlarining bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llashga undaladi. Texnologiya fani darslarida bu metodni qo'llash orqali o'quvchilarga muammolarni hal qilish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va texnologik tizimlarni yaratish imkoniyatlari beriladi. O'quvchilar muammoni o'zlari aniqlashadi, uni tahlil qilishadi va yechim topishadi, bu esa ijodkorlik va yaratuvchanlikni oshiradi. Misol uchun, o'quvchilarga yangi qurilma yaratish yoki ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish kabi vazifalar berilishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar, masalan, 3D modellashtirish, robototexnika, virtual haqiqat va boshqa ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali

o'quvchilar texnologiya fanidagi ijodiy va yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'zlarining g'oyalarini hayotga tatbiq etishadi va yangi texnik qurilmalar yoki tizimlarni yaratishda ishtirok etadilar. 3D printerlardan foydalanish orqali o'quvchilar o'z dizaynlarini yaratib, amaliyotda sinab ko'rishlari mumkin. Dasturlash va robototexnika texnologiya fanida ijodkorlikni rivojlantirishning muhim vositalaridan biridir. O'quvchilar robotlarni yaratish, dastur yozish va texnologik tizimlarni boshqarish orqali kreativ yondashuvni o'zlashtiradilar. Bu jarayon o'quvchilarga murakkab vazifalarni hal qilish, yangi qurilmalar yaratish va turli texnik tizimlarni yaratishda ijodiy yondashuvni rivojlantirish

Talabalarning yangi ta’lim muhitiga moslashuvi turli omillarga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda oliy ta’lim tizimi tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot oliy ta’lim tizimi talabalari orasida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda interfaol ta’lim yondashuvlarining kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muloqot ko‘nikmalari tushunchasini aniqlash muhim ahamiyatga ega, chunki u talabalarningnafaqat nutqiy faoliyatini, balki ularning ijtimoiy faolligi, hamkorlikka tayyorligi va kommunikativ pozitsiyasini ham o‘z ichiga oladi. Lenin (2019)[4] fikricha, muloqot ko‘nikmalari muayyan ta’lim muhitida axborotni qabul qilish, qayta ishlash va boshqalarga yetkazish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, kommunikativ faoliyatning asosini tashkil etadi. Southern (2022)[9] esa muloqotni fikrlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni anglash, e’tiqod va harakatlarni ifodalashga yo‘naltirilgan ijtimoiy jarayon sifatidatalqin etadi. Shu jihatdan, muloqot ko‘nikmalari talabalarning akademik va shaxsiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.Oliy ta’lim jarayonida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun samarali ta’lim modellari va yondashuvlaridan foydalanish zarur. Bunday modellar talabalarga axborotni muhokama qilish, fikr almashish, bahs-munozarada ishtirok etish va jamoada ishlash imkonini beradi (Rahmi, Alberida & Astuti, 2019). [7] Axborotni qayta ishlashga yo‘naltirilgan ta’lim modellari, jumladan interfaol yondashuvlar, talabalarning kommunikativ faolligini oshirishga xizmat qiladi. Interfaol o‘qitish va o‘rganish yondashuvlari talabalarning o‘quv jarayonida faol muloqotga kirishishini ta’minlaydi (Senthamarai, 2018).[8] Ushbu strategiyalar talabalarning tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlash, o‘z fikrini asoslab bayon etish va samarali muloqot olib borish qobiliyatini rivojlantirib, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.[2]Interfaol o‘qitish va o‘rganish strategiyalari ta’lim jarayonida talabala

WOT tahlilistrategik rejalashtirish usuli bo‘lib, u tashkilotning ichki va tashqi muhiti omillarini aniqlash va ularni to‘rt toifaga bo‘lishdan iborat: • Skuchlari (S),•Zaifliklar(W),•Imkoniyatlarhaqida(O),•Tahdidlar(T).

Kuchli (S) va kuchsiz (W) tomonlar tahlil qilinayotgan obyektningichki muhitiningomillari, (ya’ni obyektning o‘zi nimaga ta’sir qilishi mumkin); Imkoniyatlar (O) va tahdidlar (T)atrof-muhitomillari (ya’ni, obyektga tashqaridan ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan va obyekt tomonidan boshqarilmaydiganlar). Masalan, korxona o‘zining savdo assortimentini boshqaradi –bu ichki muhit omili, ammo savdo qonunlari korxona tomonidan nazorat qilinmaydi -bu tashqimuhit omili [5].1-rasm. SWOTtahlili.“KLASTER” grafikorganayzeri“Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) grafikorganayzeripuxta o‘ylanganstrategiya bo‘lib, unita’limoluvchi(talaba)larbilanyakka tartibda, guruhasosida tashkiletiladiganmashg‘ulotlarda qo‘llashmumkin.

Klasterlarilgarisurilgang‘oyalarniumumlashtirish, ularo‘rtasidagialoqalarnitopishimkoniyatiniyaratadi.Shartlari:1.Nimani o‘ylagan bo‘lsangiz, uni qog‘ozga yozing! Fikringizning sifati haqida o‘ylab o‘tirmay, shunchaki yozib boring! 2.Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang! 3.Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunicha, yozishdan to‘xtamang! Agar ma’lum muddat o‘ylay olmasangiz, u

holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguniga qadar davom ettiring! 4.Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlikni ko‘rsating![nargiza]Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:1. Xayolga kelgan har qanday fikr ketma-ket yoziladi.2.Fikrlar tugamaguncha yozishda davom ettirish kerak, fikrlar tugab qolsa, u holda yangi fikr kelguncha biron rasm chizib turing.3. Iloji boricha fikrlarning ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligini ko‘paytirishga intiling.4. So‘zlar ketma-ketligi faqat “nima?” degan so‘rog‘iga javob berishi lozim.

Ushbu metod yakka, kichik guruh, jamoa bilan ishlashda qo‘llanishi mumkin. Guruh holatida qo‘llanilishi guruhlar fikrini to‘plash va ularni bir tizimdagi qurilmaga keltirish mumkin.“Venn diagrammasi” metodi.O‘qituvchi nutq madaniyati va notiqlik orasidagi ba’zi muhim farqli tomonlarni va belgilarni bilishi lozim. Ularni “Venn diagrammasi”da tasvirlang:Venn diagrammasi –2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi.Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.Tinglovchilar:1) kichik gurhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarida rivojlangan davlatlar ta’lim tizimiga oid fikrlarini oydinlashtirib olib, to‘ldiradilar; 2) juftliklarga birlashadilar, o‘zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to‘ldiradilar;3) doiralarning kesishuvchi joyida ikki doira uchun umumiy bo‘lgan fikrlar ro‘yxatini tuzadi;4) ish natijalarining taqdimoti2-rasm. VENN diagrammasi.Xulosa va tavsiyalar.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol o‘qitish metodlari oliy ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning samarali pedagogik vositalaridan biridir. Interfaol metodlar talabalarning o‘quv jarayonida faol ishtirokini ta’minlab, ularni mustaqil fikrlash, muammolarni birgalikda hal qilish va jamoada ishlashga yo‘naltiradi. Ayniqsa, birinchi kurs talabalari uchun interfaol ta’lim muhitining yaratilishi oliy ta’lim tizimiga moslashuv jarayonini yengillashtiradi hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning tanqidiy fikrlashi, ijtimoiy faolligi va kommunikativ pozitsiyasini mustahkamlaydi. Shunday qilib, interfaol yondashuvlar zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.Yuqoridagilardan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi: • Oliy ta’lim muassasalarida barcha fanlar kesimida interfaol metodlardan tizimli foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Texnologiya fanida ijodkorlik va yaratuvchanlikni rivojlantirish o'quvchilarga nafaqat ilmiy bilimlarni, balki real dunyo muammolarini hal qilishda zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham taqdim etadi. Bu jarayon, o'quvchilarning innovatsion g'oyalarni yaratishga, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga va turli vaziyatlarga ijodiy yondashishga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa.

Interfaol o'qitish metodlari texnologiya fanida o'quvchilarning ijodkorlik va yaratuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodlar o'quvchilarning ta'lim jarayoniga faol ishtirok etishini ta'minlab, ular o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Interfaol metodlar yordamida o'quvchilar muammolarni hal qilish, yangi g'oyalar yaratish, va real hayotdagi texnologik masalalarni yechish jarayonlariga jalb etiladi. Texnologiya fanida interfaol metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarni zamonaviy texnologik jarayonlarga tayyorlash, yangi g'oyalar ishlab chiqish va real muammolarni hal qilishda yaratish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, interfaol o'qitish metodlari o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini oshirish, yangi texnologik yechimlar yaratish, va innovatsion fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib, ular o'qish jarayonida nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'ladi.

• O‘qituvchilar uchun interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llashga yo‘naltirilgan malaka oshirish kurslarini kengaytirish. • Ta’lim jarayonida loyiha, muammoli vaziyat, bahs-munozara, rolli o‘yin va klaster metodlarini muntazam qo‘llashni yo‘lga qo‘yish. • Talabalarning

kommunikativ kompetensiyalarini baholash uchun mezon va indikatorlar tizimini ishlab chiqish.•Interfaol ta'lim muhitini rivojlantirish maqsadida raqamli va multimedia vositalaridan keng foydalanish.•Birinchi kurs talabalari uchun moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlovchi kommunikativ treninglar va seminarlar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alam, A. (2024). A digital game-based learning approach for effective curriculum transaction for teaching and learning of artificial intelligence and machine learning. International Conference on Sustainable Computing and Data Communication Systems. 1-6.
2. Agyeman N. Y. B., Aphane V. V.Enhancing Critical Thinking through Interactive Learning Approaches for First-Year University Students // Journal of Research Initiatives. –2025. –Vol. 9, No. 1. –Article 11. –ISSN 2168-9083.
3. Dlamini, B. I., & Zongli, L. J. (2020). Adjustments experiences of first year studdents in South Africa. Academic of Educational Leadership Journal, 24(2), 1-10.
4. Lenin, I. (2019). Critical thinking and its importance in education. Karaikudi: Alagappa University.
5. Pedagogik texnologiyalar –ta'lim samaradorligi omili: monografiya / O.Musurmonova. - Toshkent : Yoshlar nashriyoti uyi, 2020. –184 b.
6. Qodirova F.U., Pulatova D.A.Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim sharoitida o'qitish : darslik. —Yangi Chirchiq : Yangi Chirchiq Book, 2024. —254 b. —ISBN 978-9943-9166-0-9.
7. Rahmi, Y. L. (2019). Enhancing students critical thinking skills through enquiry based learning model. Journal of Pyhysics: Conference Series, 1-17.
8. Senthamaral, S. (2018). Interactive teaching strategies. Journal of Applied and Advanced Research, 3(1), 36-38.
9. Southern, J. (2022). Bridging critical thinking and transformative learning: The ro 9.Southern, J. (2022). Bridging critical thinking and transformative learning: The role of perspective-taking. Theory and research in education, 20(1), 44-63
10. References:
11. 1. Исмаилов, Г. М., Минеев, В. Е., Бодрова, А. Ш., & Исмаилова, С. С. (2018). Развитие творческого потенциала личности на уроках технологии. Современные проблемы науки и образования, (2), 80-84.
12. 2. Каретников, А. В. (2022). Перспективы применения цифровых технологий в современном учебном оборудовании для обработки конструкционных материалов. In Актуальные вопросы и тенденции развития предметной области" Технология" (pp. 72-85).
13. 3. Ferrari, A., Cachia, R., & Punie, Y. (2009). Innovation and creativity in education and training in the EU member states: Fostering creative learning and supporting innovative teaching. JRC Technical Note, 52374, 64.
14. 4. Narayanan, S. (2017). A study on the relationship between creativity and innovation in teaching and learning methods towards students academic performance at private higher education institution, Malaysia. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, 7(4), 1-10.
15. 5. Wannapiroon, N., & Pimdee, P. (2022). Thai undergraduate science, technology, engineering, arts, and math (STEAM) creative thinking and innovation skill development: a conceptual model using a digital virtual classroom learning environment. Education and Information Technologies, 27(4), 5689-5716.